XALQ DEPUTATLARI MIROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 17-aprel II-99-54-14-199-K/24 Mirobod tumani

Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “2024-yil uchun Mirobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-95-282-14-199-K/23-sonli qarorining 5-bandi, 2-xatboshisiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari hamda Mirobod tuman adliya bo‘limining 2024 yil 26 fevraldagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi 16/3-2/3-sonli taqdimnomasini inobatga olib,Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023 yil 28 dekabrdagi “2024 yil uchun Mirobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-95-282-14-199-K/23-sonli qaroridagi texnik xatolikni to‘g‘rilash maqsadida Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “2024-yil uchun Mirobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-95-282-14-199-K/23-sonli qarorining 5-bandi, 2-xatboshisiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida Mirobod tuman hokimligining taklifi jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun 15 kun muddatga “E-Kengash” elektron tizimiga joylashtirilib, **ID-96262**-sonli loyiha **regulation.gov.uz** saytida e’lon qilinganligi;

muhokama yakunlari bilan jamoatchilik tomonidan takliflar kelib tushmaganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Mirobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-95-282-14-199-K/23-sonli qarorining 5-bandi, ikkinchi xatboshisidagi “2023” raqami “2024” raqamiga almashtirilsin.

2. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “2024-yil uchun Mirobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-95-282-14-199-K/23-

sonli qarorining 5-bandi, 2-xatboshisiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi II-95-283-14-199-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yoqotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Mirobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Salaydinov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi ARTIKOVA MAXSUMA ISMAILOVNA